

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
INTERNATIONAL
COPERNICUS

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 475 sahifa.
2025-yil, 21-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG’URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimddjanov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Ҳақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Абдорбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojiakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoiri Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich	



QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

E-mail: sh.kurbaniyazov@trm.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, korporativ tuzilmalarning samaradorligini oshirish omillari hamda boshqaruv tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, korporativ boshqaruvning moliyaviy barqarorlik, investitsiya jozibadorligi va innovatsion rivojlanishga ta'siri baholangan. Ilmiy natijalar qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash hamda prognoz parametrlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, qurilish materiallari sanoati, investitsiya faoliyati, moliyaviy barqarorlik, innovatsiya, prognoz parametrlar.

Abstract. This article presents a scientific analysis of improving the organizational and economic mechanism of corporate governance in the construction materials industry. The study examines the reforms implemented in the sector, factors that enhance the efficiency of corporate structures, and directions for aligning the management system with international standards. The influence of corporate governance on financial stability, investment attractiveness, and innovation development is also assessed. The research findings help identify the most promising directions for developing corporate governance and determining forecast parameters for sustainable industry growth.

Keywords: corporate governance, organizational and economic mechanism, construction materials industry, investment activity, financial stability, innovation, forecast parameters.

Аннотация. В данной статье проведён научный анализ вопросов совершенствования организационно-экономического механизма корпоративного управления в промышленности строительных материалов. В исследовании рассмотрены проводимые в отрасли реформы, факторы повышения эффективности корпоративных структур и направления приведения системы управления в соответствие с международными стандартами. Кроме того, дана оценка влияния корпоративного управления на финансовую устойчивость, инвестиционную привлекательность и инновационное развитие. Полученные научные результаты способствуют определению перспективных направлений развития корпоративного управления и уточнению прогнозных параметров в отрасли строительных материалов.

Ключевые слова: корпоративное управление, организационно-экономический механизм, промышленность строительных материалов, инвестиционная деятельность, финансовая устойчивость, инновации, прогнозные параметры.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu soha infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, aholiga uy-joy bilan ta'minlash, sanoat va transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiy o'sishining barqaror drayverlaridan biriga aylanib bormoqda.

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, raqobat muhitining kuchayishi va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari qurilish materiallari sanoatida boshqaruv tizimini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Bugungi kunda korporativ boshqaruv nafaqat aksiyadorlik jamiyatlari yoki yirik kompaniyalar faoliyatini samarali tashkil etish vositasi, balki butun tarmoq miqyosida resurslardan oqilona foydalanish, investitsiya

faoliyati samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish — ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish orqali sohaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning amaliy ahamiyatini asoslab berish hamda sohada barqaror rivojlanish uchun ilmiy-nazariy asos yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari masalasi xorijiy mamlakatlar olimlari — E.N. Veasey [1], R.S. Eells [2], A. Berle va G. Means [3], N.K. Chayka [4]larning ilmiy asarlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati, tashkiliy tuzilmasi hamda kompaniya manfaatdor tomonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmi chuqur tahlil qilingan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D. Suyunov, E. Xoshimov [5], Z.A. Ashurov [6], M.B. Xamidulin [7], Sh.N. Zaynutdinov, R.I. Nurimbetov [8], E.X. Mahmudov [9], S.M. Niyazov [10], A. Suyunov [11], S. Elmirzayev [12], J. Qurbanov [13], S. Akramov [14], I.P. Najimov [15] va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida korporativ boshqaruvning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda boshqaruv samaradorligini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish hamda korporativ boshqaruvning milliy modelini shakllantirishga oid qimmatli ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

Shunga qaramay, mavjud ilmiy izlanishlarda korporativ boshqaruvning aynan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning metodologik muammolari kompleks va tizimli yondashuv asosida yetarlicha o'rganilmagan. Bu holat ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi va korporativ boshqaruv tizimini zamonaviy iqtisodiy islohotlar talablariga moslashtirishga qaratilgan yangi ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi.

Mazkur dissertatsion ishda aynan shu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada, tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash sharoitida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, iqtisodiy-statistik baholash, taqqoslama tahlil, ekonometriya modellari asosidagi tahlil hamda ekspert baholash usullaridan tizimli ravishda foydalanildi.

Mazkur metodologik yondashuv korporativ boshqaruv tizimining samaradorlik omillarini aniqlash, ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy natijadorligini baholash hamda korxonalarda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bevosita sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi bilan chambarchas bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarni jalb qilishning eng maqbul va samarali yo'nalishlaridan biri bu — qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, korporativ boshqaruv tizimini samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning qurilish materiallari sanoatidagi yakuniy natijalarga ta'sirini baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Avvalgi tahlillarimizdan ma'lumki, korporativ boshqaruvni tashkil etish va uni tartibga solish uchun zarur huquqiy asoslar hamda mezonlar belgilab beruvchi qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlarda jarayonni yanada takomillashtirish hamda bugungi kun talablari asosida boshqaruv tizimini samarali tashkil etishga qaratilgan aniq vazifalar belgilangan.

Korporativ boshqaruvning huquqiy asoslarini shakllantirish natijasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning qurilish materiallari sanoatidagi samaradorlikka ta'sirini baholash uchun rehtabellik ko'rsatkichi tanlandi. Chunki rehtabellik ko'rsatkichi moliyaviy natijani ifodalovchi asosiy indikator bo'lib, korxona faoliyatining barcha yo'nalishlaridagi yakuniy samaradorlikni ifodalaydi va boshqaruv tizimi samaradorligini belgilovchi muhim mezon sifatida xizmat qiladi.



Ushbu ta'sirni baholashda sarlavhasida "korporativ boshqaruv", matnida esa "qurilish" hamda "qurilish materiallari" so'zlari uchraydigan hujjatlar sonining kumulyativ yig'indisi omil sifatida ko'rib chiqildi. Birinchi ko'rsatkich — umumiy korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish jarayonining umumiy ta'sirini, ikkinchi va uchinchi ko'rsatkichlar esa — aynan qurilish sohasi hamda qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijalarini ifodalaydi.

Keltirilgan omillarning qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalardagi rentabellik darajasiga ta'sirini baholash uchun bir necha variantlar tahlil qilindi. Dastlab uchala omil bitta modelda ko'rib chiqildi va bu holatda sarlavhasida "qurilish materiallari", matnida esa "korporativ boshqaruv" so'zi mavjud bo'lgan hujjatlar sonining kumulyativ yig'indisi ta'sirini ifodalovchi koeffitsientning Student mezoniga ko'ra adekvat emasligi aniqlandi.

Biroq, omillarni alohida-alohida ko'rib chiqish natijasida ushbu omillarning bevosita ta'siri past darajada ekanligi kuzatildi. Shu bois, ularning o'zaro ta'siri va bog'liqligini aniqlash maqsadida turli variantlar asosida qiyosiy tahlil o'tkazildi.

Qiyosiy tahlil natijalariga tayangan holda, qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruv samaradorligini aniqlovchi eng maqbul iqtisodiy modelni shakllantirish va uni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq deb topildi. Ushbu yondashuv sohada korporativ boshqaruvni takomillashtirishning ilmiy asoslangan mexanizmini yaratishga hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

$$RCM = 33,7 - 3,2 * D_{01} + 9,9 * D_{11}$$

Bu yerda: CRM — qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda rentabellik darajasi (foizda); D_{01} — sarlavhasida "korporativ boshqaruv" so'zi mavjud bo'lgan hujjatlar sonining kumulyativ yig'indisi; D_{11} — sarlavhasida "korporativ boshqaruv" va matnida "qurilish" so'zi mavjud bo'lgan hujjatlar sonining kumulyativ yig'indisini bildiradi.

Mazkur model boshqa alternativ variantlarga nisbatan yuqori ishonchlilik darajasiga ega bo'lib, bu holatni quyida keltirilgan mezonlar natijalari orqali asoslash mumkin (1-jadval).

1-jadval. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda rentabellik darajasiga korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ta'sirini baholash natijalari ¹

Ko'rsatkichlar	Ko'effitsient	Standart xato	t-statistika	p-qiymat	
Const	33.6890	2.58396	13.04	<0.0001	***
D01	-3.19468	0.497725	-6.419	<0.0001	***
D11	9.87113	1.87944	5.252	0.0002	***
O'rtacha bog'liq o'zgaruvchi	21.80741		Bog'liq o'zgaruvchining standart og'ishi	9.936208	
Qoldiqlar kvadratlari yig'indisi	265.4869		Regressiyaning standart xatosi	4.703606	
R-kvadrat	0.807924		Tuzatilgan R-kvadrat	0.775911	
F(2, 12)	25.23760		F-statistikasi uchun P-qiymat	0.000050	
Log-likelihood	-42.83544		Akaike kriteriyasi	91.67088	
Schwarz kriteriyasi	93.79503		Hannan–Quinn kriteriyasi	91.64826	
Rho	0.349814		Durbin–Watson koeffitsienti	1.084659	

Model 4. OLS usuli asosida, 2010–2024-yillar (T = 15) davridagi kuzatuvlar bo'yicha hisob-kitoblar

Dastlab har bir aniqlangan koeffitsientning adekvatligini asoslash uchun Student mezon natijalari ko'rib chiqildi. Mazkur mezon bo'yicha jadval qiymati 2,18 ni tashkil etishini inobatga olgan holda, barcha aniqlangan ko'rsatkichlarning ushbu qiymatdan yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Bu holat modeldagi har bir o'zgaruvchining statistik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, determinatsiya koeffitsienti 0,81 ga teng bo'lib, bu model omillarining ta'siri yetarli darajada yuqori ekanini ko'rsatadi. Fisher mezon bo'yicha aniqlangan qiymat ham jadvaldagi qiymatdan ($F_{jad} = 4,75$) katta bo'lib, bu modelning umumiy ishonchliligini tasdiqlaydi. Mazkur holatni Fisher mezon bo'yicha taqdim etilgan ehtimollik ko'rsatkichi yordamida ham asoslash mumkin.

Vaqt qatorlarini modellashtirishda muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida Durbin–Watson mezon natijalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatda mazkur ko'rsatkich 1,1 ni tashkil etmoqda. Jadval bo'yicha

¹ корпоративное управление, организационно-экономический механизм, промышленность строительных материалов, инвестиционная деятельность, финансовая устойчивость, инновации, прогнозные параметры.

esa quyi chegara 0,94, yuqori chegara 1,54 ni tashkil qiladi. Ya'ni, aniqlangan qiymat "qarorsizlik zonasini"ga (indecision zone) to'g'ri keladi. Bu vaziyatda avtokorrelyatsiya muammosining mavjud yoki mavjud emasligi haqida aniq xulosa chiqarish qiyin, biroq boshqa mezonlar natijalari yuqori ishonchlilik darajasini ko'rsatgani sababli modeldan foydalanish to'liq asosli hisoblanadi.

Model natijalariga ko'ra, birinchi omilning ta'sirini ifodalovchi koeffitsient manfiy qiymatga ega bo'lib, -3,2 ni tashkil etadi. Ushbu holatni aniqlashtirish maqsadida faqat mazkur omilning o'zi bo'yicha qo'shimcha tahlil o'tkazildi va natijada ishoraning o'zgarmagani aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, sarlavhasida "korporativ boshqaruv" so'zi mavjud bo'lgan hujjatlar sonining kumulyativ yig'indisi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda rentabellik darajasiga nisbatan salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Boshqacha aytganda, mazkur yo'nalishdagi hujjatlar sonining har bir birlikka ortishi rentabellik darajasini o'rtacha 3,2 foizga kamaytiradi.

Ikkinchi omilning ta'sirini ifodalovchi koeffitsient esa ijobiy qiymatga ega bo'lib, sarlavhasida "korporativ boshqaruv" va matnida "qurilish" so'zi mavjud bo'lgan hujjatlar sonining har bir birlikka ortishi rentabellik darajasining o'rtacha 9,8 foizga oshishiga olib keladi. Aslida, rentabellik ko'rsatkichi 2010-yilda 23,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 11,3 foizga pasaygan. Shu bilan birga, hujjatlar soni bittadan 7 birlikkacha oshgan. Ayniqsa, 2015 va 2016-yillarda ushbu ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshgan bo'lib, mos ravishda 3 va 5 birlikni tashkil etgan. Aynan shu davrda rentabellik darajasining 26,4 foizdan 40,7 foizgacha ko'tarilgani olingan natijalarning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Sarlavhasida "qurilish materiallari", matnida esa "korporativ boshqaruv" so'zi mavjud bo'lgan hujjatlar sonining kumulyativ yig'indisi bitta bo'lib, 2016-yilda qabul qilingan ushbu hujjat 2019-yilda o'z kuchini yo'qotgan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, aynan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Fikrimizcha, ushbu yo'nalishda aniq maqsadli me'yoriy hujjatlarni qabul qilish va ularda qurilish materiallari korxonalarida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalarni belgilash, ushbu sohada yanada yuqori natijalarga erishish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish sohaga barqaror rivojlanish, investitsiya muhitining yaxshilanishi va raqobatbardoshlik darajasining oshishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruv tizimini samarali tashkil etish nafaqat korxonalar faoliyatining optimallashtirilishini, balki ularning moliyaviy barqarorligi, innovatsion salohiyatining kuchayishi va bozor mavqeining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi. Shu bilan birga, korporativ qarorlar qabul qilishda shaffoflik, hisobdorlik va mas'uliyat tamoyillariga amal qilinishi sohada ishonchli boshqaruv muhitini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sohada olib borilgan tahlillar natijasida qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha qator amaliy takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, ya'ni qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda korporativ boshqaruvning milliy modelini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish zarur bo'lib, bu o'z navbatida korporativ qarorlarning samaradorligini oshiradi va manfaatdor tomonlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda kapital oqimlarini diversifikatsiya qilish, samarali moliyaviy menejmentni yo'lga qo'yish hamda investitsiyalarning qaytimi ustidan nazoratni kuchaytirish talab etiladi. Sohaning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ya'ni raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish lozim. Shu bilan birga, investitsiya muhitini takomillashtirish, mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay huquqiy hamda iqtisodiy sharoitlar yaratish, investitsiya risklarini kamaytirish mexanizmlarini joriy etish ham sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish yo'nalishida esa korporativ boshqaruv, strategik menejment va moliyaviy tahlil bo'yicha malaka oshirish dasturlarini tashkil etish hamda mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy modellari va xalqaro tajribasini joriy etish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, prognoz parametrlarini korporativ strategiyaga integratsiya qilish, sohaning istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashda ilmiy tahlil va modelashtirish usullaridan keng foydalanish zarur. Xulosa qilib aytganda, qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish sohaga barqaror o'sish, innovatsion rivojlanish va milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatni yanada mustahkamlash imkonini beruvchi muhim ilmiy-amaliy asos hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Veasey E.N. *The Emergence of Corporate Governance as a New Legal Discipline* // The Business Lawyer. – August 1993. – Vol. 48, Issue 4. – P. 1267–1271.



2. Eells R.S.F. *The Meaning of Modern Business: An Introduction to the Philosophy of Large Corporate Enterprise*. – New York: Columbia University Press, 1960. – 427 p.
3. Berle A., Means G. *The Modern Corporation and Private Property*. – New York: Macmillan, 1932. – 478 p.
4. Chayka N.K. *Otsenka urovnya razvitiya korporativnogo upravleniya* // STIN. – 2024. – № 1. – S. 20–24.
5. Suyunov D., Xoshimov E. *Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning metodologik jihatlari*. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – № 2, mart–aprel, 2018-yil.
6. Ashurov Z.A. *Korporativ boshqaruv kontseptsiyasi va mohiyati: ilmiy-nazariy yondashuvlar va ularni rivojlantirish*. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – № 6, noyabr–dekabr, 2015-yil.
7. Xamidulin M.B. *Finansovye mekhanizmy korporativnogo upravleniya*. Monografiya. – Toshkent: Moliya, 2008. – 204 s.
8. Zaynutdinov Sh.N., Nurimbetov R.I. *Resursnaya baza i potentsial proizvodstva Uzbekistana: ispolzovaniye i effektivnost (regionalny aspekt)* // Byulleten nauki i praktiki. Elektron. zhurn. – 2017. – № 10 (23). – S. 207–212.
9. Mahmudov E.X. *Promyshlennost Uzbekistana: ekonomika, razmeshcheniye, priority razvitiya (voprosy teorii i praktiki)*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2013. – 131 s.
10. Niyazov S.M. *Ekonomicheskoye reformirovaniye proizvodstvenno-tekhnicheskoy bazy stroitelstva*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 176 s.
11. Suyunov A. *Modernizatsiya ekonomiki kapitalnogo stroitelstva na osnove sovershenstvovaniya investitsionnykh protsessov*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 164 s.
12. Elmirzayev S. *Korporativ moliyaviy munosabatlarda soliqlarni rejalashtirish masalalari*. “Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy” – 2018. – № 6 (114).
13. Qurbanov J. *Davlat va korporativ tuzilmalar oʻrtasidagi oʻzaro moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish istiqbollari*. Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 56 b.
14. Akramov S. *Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish yoʻllari*. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – № 2, mart–aprel, 2017-yil.
15. Najimov I.P. *Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining barqaror rivojlanishini taʼminlash*. Monografiya. – Toshkent: Lesson Press, 2021. – 141 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100